

Talabalarda Milliy Qadriyatlar Asosida, Ma'naviy- Ma'rifiy Va Badiiy-Estetik Tushunchalarni Rivojlantirish

Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtorbek qizi

Urganch Davlat Universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarining o'qish faoliyatiga, talabalar ma'naviyatini milliy g'oya vositasida yuksaltirib, buyuk ajdodlar merosiga haqiqiy, asl voris bo'lishlariga xizmat qiluvchi ijtimoiy pedagogik yo'nalishlar, milliy qadriyat, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning ahamiyati haqidagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ma'rifat, badiiy xavaskorlik, xulq, estetik tarbiya, g'oya, qadriyatlar.

Dunyoda oliy ta'lim muassasalari talabalarining ijtimoiy faolligini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashga doir yangi pedagogik vositalarni ishlab chiqish, ijtimoiy-madaniy va kommunikativ faoliyatni samarali tashkil etish malakalarini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ijtimoiy faollikni rivojlantirishning asosiy omillari sifatida talabalarda axloqiy-estetik dunyoqarash va siyosiy ijtimoiylashuvni qaror toptirish alohida e'tirof qaratilmoqda.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni qurishda yosh avlodning mafkurasi muhim ahamiyatga ega. Zero, prezidentimiz ta'kidlaganlaridek yoshlarni "ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlariga asoslangan kuchli ma'naviyat" ruhida tarbiyalash lozim. Mafkura – fikr tarbiyasi ekan, yoshlarni fikrlashga o'rgatmoq lozim. Fikrlash esa o'qishda, bilim olish bilan paydo bo'ladi. Bu borada bizga mutafakkirlarimiz, olimu – fuzololarimiz, shoir va yozuvchilarimizning badiiy so'zlari asarlari yordamga keladi. Shu jumladan yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini rivojlantirishda bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishda o'qituvchilarning roli muhimligini aytib o'tganlar. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: "...Haqiqatan ham hozirgi yoshlar tarbiyasi biz uchun dolzarbligini va ahamiyatini ustoz-murabbiylar jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushroylik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak"ligini alohida ta'kidladi [1.1,23b].

Jahon sivilizatsiyasiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelgan mutafakkirlarimiz al Xorazmiy, al Beruniy, al Farg'oniy, al Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Alisher Navoiy, Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi milliy va millat qahramonlarimiz hayoti, ijodi va tafakkur maxsullari va ularning munosib izdoshlari qalb so'zlari bilan jahonga jar slogan E.Vohidov, A.Oripov, Omon Matjon, Matnazar Abdulhakim, Muhammad Yusufklar bizning ma'naviy va yuksak madaniy poydevor va mustahkam ustunlarimiz tobora yuksalib borayotgan O'zbekistonimizga noxolis ko'z bilan nazar solayotganlarga qarshi kuch qudrat ekanligini ilm va ma'rifat ila namoyon qilish uchun yoshlarimiz ongini buyuk ajdodlarimiz hayot yo'li misolida tarbiyalash lozim. Ularda milliy g'urur vatanparvarlik ruxini paydo qilishda yangi pedagogik omillar davr talabidir. Nima qilmoq kerak? Hurmatli prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "yoshlar siyosatiga oid" farmonida ko'rsatib o'tilgandek, milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishda ijtimoiy pedagogik yo'nalishlarda milliy qadriyatlarimizni chuqurroq o'rganish va ularga tayanish lozim: Ma'naviy –ma'rifiy tadbirlarda jamiyatning barcha ijtimoiy pedagogik institutlarini ishga solib ularning faoliyatini

muvoqilashdirish” Respublikamizni yanada rivojlantirishning xarakteristik strategiyasida yoshlarda badiiy-estetik qadriyatlarini shakllantirish, ularning g‘oyaviy tarbiyadagi o‘rni hamda ta‘siriga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarini olib borishda ko‘zda tutilgan.

Talabalar ma‘naviyatini milliy g‘oya vositasida yuksaltirib, buyuk ajdodlar merosiga haqiqiy, asl voris bo‘lishlariga xizmat qiluvchi ijtimoiy pedagogik yo‘nalishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, milliy g‘oyani yoshlar ongi va qalbiga singdirishning ijtimoiy pedagogik yo‘nalishlari:

- jamiyat ma‘naviyatini o‘zgartirish, inson va uning tabiatini o‘zgartirish bilan uyg‘un olib borish;
- talabalarga o‘zi va zamondoshlarining ma‘naviy barkamolligi uchun mas‘ullikni singdirish;
- ma‘naviy yangilanishlarni davlat homiyligidagi ijtimoiy-tarbiyaviy jarayon sifatida o‘rganib, ijtimoiy–tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishni ham nazarda tutadi.

Asosiy e‘tibor qaratilishi zarur deb hisoblangan masalalar sirasiga g‘oyaviy kurashning umumbashariy va mintaqaviy muammolarini aniqlash; mafkuraviy taxdidlar va ularga qarshi kurashning samarali yo‘llari haqida ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari yuklatilgan. Oliy ta‘lim muassasalarim ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimida:

- badiiy havaskorlik ishlarini ilmiy asoslangan, pedagogik texnologiya asosiga qurish;
- badiiy jamoalarda g‘oyaviy-estetik tarbiya mexanizmlarini ishlab chiqish;
- “ommaviy madaniyat”ga qarshi ma‘rifiy kurash taktikasini ilmiy asoslash;
- faxsh va jangari mazmundagi musiqiy kino, teatr, video, audio, ta‘sirini zararsizlantirishga qaratilgan ilmiy – ommaviy choralar ko‘rish;
- g‘oyaviy-estetik tarbiya ishlarining monitoringini o‘rnatib yutuqlarni yanada ko‘paytirish;

Oliy ta‘lim muassasalarida olib borilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar amaliyotini o‘rganish bilan targ‘ibotning boy imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Bu tizim tanlovlar, sport musobaqalari, mushoiara, zakovat, kitobxonlar, konferensiyalar, uchrashuvlar, sahna ko‘rinishlari, aytishuvlar, bayramlar va boshqa tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek kitob o‘qish madaniyati, musiqa tinglash alohida mumtoz musiqalarni tinglash, tahlil qilish ahamiyatga molik. Talabalarni g‘oyaviy badiiy estetik tushunchalarini yanada boyitish maqsadida jamoa bo‘lib teatr spektakllarini tamosha qilish, ayniqsa qo‘g‘irchoq teatr tomoshalari talabalarining tarbiyaviy pedagogik omillarini yanada boyitadi. Talaba badiiy havaskorlik to‘garagining nafaqat ob‘yekti, balki sub‘yektiga aylangandagina bu hamkorlikning yuqori samaradorligiga erishish mumkin. Yosh avlod tarbiyasida milliy musiqiy o‘zbekona ohanglar, mumtoz navolarning ta‘siri mumtozona yo‘nalishlarda olib borilishi zarur.

Dunyoda hech narsa – deb yozadi musiqashunos olim F.To‘rayev, “-musiqasi singari inson ruxining yashirin quvvatlarini junbushga keltira olmaydi”. Ammo bugun “Ommaviy madaniyat” deya bong urayotgan noxolis kimsalar turli g‘ayritabiiy, shovqinli ritmik ko‘rinishlar bilan yoshlar ongini zabt etishga urinayotgan bir paytda, sof o‘zbekona, go‘zal musiqaviy tarbiyaning o‘rnini kuchaytirish har jihatdan muhim.[2]

Hurmatli prezidentimizning, - “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruxi ma‘naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyat.”

Islohotlar uchun mablag‘ va investitsiyalarni topamiz, lekin ma‘naviy immunitetni mustahkamlash uchun ruhiy resursni qayerdan topamiz? degan g‘oyatli o‘rinli savol har birimizni o‘ylantirishi va harakatlantirishi lozim va muhim. Avvalo bu muammo butun xalqimizniki, ikkinchidan insoniyat ruhiyatining va ongini shakllantiruvchi soha xodimlari ustoz murabbiylarga ta‘alluqli. Lekin bu savol har bir ota-ona, har bir muallim, har bir mahalla fuqorolarini tashvishga solmog‘i, ijodiy

yondashuvi zarur. Bu muaommoni yechimi ajdodlarimiz bizga qoldirgan boy milliy qadriyatlarimiz, milliy merosimizni chuqur va mukammal o'rganmog'imiz, o'rgatmog'imiz, targ'ib qilmog'imiz va jon tanimiz bilan qadrlamog'imiz, g'ururlanmog'imiz, mutafakkur ota-bobolarimiz nomlarini ulug'lamog'imiz, qalbimizda saqlamog'imiz balo-qazolardan asramog'imiz muqaddas burchimizdir.

Talabalarning ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida motivlashtirish ularda ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyati, insonparvarlik, mehnatsevarlik, fidoyilik, xalqi va millatiga munosib farzand bo'lib shakllanishga, sadoqat va e'tiqod, irodaviylik, erkinlik va bag'rikenglik, rostgo'ylik kabi qadriyatlarni e'zozlashga o'rgatish kabi tushunchalarni o'zlashtirish va ularda mazkur tushunchalarni o'rganish uchun qiziqishlarni vujudga keltiruvchi ijobiy motivlarni shakllantirish muhim sanalib, ular o'quvchilarda ijtimoiy faollikni shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qiladi.[3]

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash kelajakning mevasi hisoblanadi. Milliy g'oya tushunchalarini anglab yetishlari bu o'zlikni anglash demakdir. Yangi O'zbekistonni barpo etishda albatta talaba yoshlarimiz milliy qadriyatlarimizni, g'oyaviy estetik tarbiyani, ma'naviyatni anglab yetishlari lozim. Ularda ijtimoiy faollikning shakllanishi va rivojlanishi ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligiga bog'liq bo'lib, mazkur jarayonlarning muvaffaqiyati o'quv faoliyatining natijaviyligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi" mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2017
2. To'rayev F. "Mutribot qalbidan uchgan navolar" T. "Navro'z"-2018y
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni
4. M.Q.Raxmanova Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Instituti o'qituvchisi "Oliy ta'lim muassasasi talabalarida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishning muhim omillari" maqolasidan.